



**FARG'ONA VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**FARG'ONA VILOYATIDA
QURILISH ISHLARI**

2022-yil yanvar-aprel

2022-yil yanvar-aprel oylari uchun Farg'ona viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-aprel
oylariga,

Farg'ona viloyatida jami
2 286,4 mlrd. so'mlik qurilish ishlari
bajarilib, o'sish sur'ati 2021-yilning
yanvar- aprel oylariga nisbatan 110,7 %ni
tashkil etdi.




Qurilish ishlari hajmining tarkibi, %da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish
tashkilotlari, kichik korxona
va mikrofirmalar hamda norasmiy
sektorlarda amalga oshirilgan ishlar
tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari
mulkchilik shakli, davlat va nodavlat
bo'lgan korxona va tashkilotlar tarkibi
bo'yicha bo'linadi.

Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi
bu — o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish
ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy
ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish
ishlari natijasidir.



**Qurilish sohasi mamlakatimiz
milliy iqtisodiyotining barqaror
o‘sishiga o‘zining munosib hissasini
qo‘shib kelayotgan sohalardan
hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat
ko‘rsatayotgan korxona va
tashkilotlarning soni 2021-yilning
mos davri bilan solishtirganda o‘sish
sur’ati 109,4 % foizga oshgan (317
birlik).**



Qurilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo‘nalishlari kesimida qaraganda:

Binolar va inshootlar qurish yo‘nalishi 55,8 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 110,5 foizga oshgan (196 birlik);

Fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 12,0 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 120,6 foizga oshgan (76 birlik);


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 32,2 foiz ulushni va 103,9 foiz o‘sish sur’atini tashkil etdi (45 birlik).



Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar, birlik

	holatiga:		o‘tgan yilga nisbatan, %da
	01.05.2021-y.	01.05.2022-y.	
Farg‘ona viloyati	3385	3702	109,4
Farg‘ona sh.	910	1006	110,5
Qo‘qon sh.	337	353	104,7
Quvasoy sh.	119	126	105,9
Marg‘ilon sh.	345	338	98,0
Oltiariq	115	123	107,0
Qo‘shtepa	105	106	101,0
Bag‘dod	156	170	109,0
Buvayda	131	139	106,1
Beshariq	93	94	101,1
Quva	147	150	102,0
Uchko‘prik	186	195	104,8
Rishton	79	96	121,5
So‘x	57	85	149,1
Toshloq	133	146	109,8
O‘zbekiston	84	102	121,4
Farg‘ona	105	142	135,2
Dang‘ara	129	141	109,3
Furqat	75	84	112,0
Yozyovon	79	106	134,2

**2022-yil 1-may holatiga ko'ra Farg'ona viloyatida faoliyat
ko'rsatayotgan qurilish korxonalarini ulushi, %da**



Joriy yilning yanvar-aprel oylariga, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 170,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 129,8 %ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2021-yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan 1,2 % punktga ko'payib, 7,4 %ni tashkil etdi.

2022-yil yanvar-aprel oylariga yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



Maʼlumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringin jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʼp ulushi Margʼilon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 48,1 % i yoki 2021-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 136,6 % oʼsish surʼati), Fargʼona shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 18,9 % i yoki oʼtgan yilning mos davriga nisbatan 145,2 % oʼsish surʼati) va Qoʼqon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 9,6 % i yoki oʼtgan yilning mos davriga nisbatan 113,0 % oʼsish surʼati)ga toʼgʼri keldi.



Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2022-yilning yanvar-aprel oylariga kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 68,5 %i to‘g‘ri kelib, 2021-yilning yanvar-aprel oylariga ko‘rsatkichiga nisbatan 2,8 foizga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021-yilning mos davriga nisbatan 103,2 %ni tashkil etgan holda 1 566,0 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, %da

71,3
2021-yil
yanvar-aprel

68,5
2022-yil
yanvar-aprel



Ma’lumot uchun: joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko‘rsatkichi Farg‘ona shahri (473,5 mlrd. so‘m yoki umumiy hajmga nisbatan 106,4 %), Qo‘qon shahri (236,5 mlrd. so‘m yoki 104,1 %), Marg‘ilon shahri (208,7 mlrd. so‘m yoki 97,3 %) va Bag‘dod tumani (207,4 mlrd. so‘m yoki 86,1 %) to‘g‘ri keldi.


Qurilish ishlarining umumiyl hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 24,1 %ni tashkil etdi yoki 550,0 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2021-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 129,5 %ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 47,0 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 2 239,4 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 2,1 % va 97,9 %ni tashkil etdi.



2022-yil yanvar-aprel oylaridagi
Farg'on viloyatida qurilish ishlari

Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta quollantirish ishlari ulushi

2022-yil yanvar-aprel oylarida

Bajarilgan qurilish ishlaringning katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringning 69,9 %i yoki 1 597,7 mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan 143,8 mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 9,0 %ni tashkil etdi.



Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 505,3 mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 31,6 %ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida qurilish ishlari


2022-yil yanvar-aprel oylarida

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, %da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya va qayta qurollantirish (mlrd. so'm)
Farg'ona viloyati	2286,4	110,7	1597,7
Farg'ona sh.	505,7	108,2	434,4
Qo'qon sh.	253,0	104,7	141,7
Quvasoy sh.	46,5	80,9	38,2
Marg'ilon sh.	290,7	105,9	208,7
<i>tumanlar:</i>			
Oltiariq	87,9	122,6	53,6
Qo'shstepta	109,5	133,1	76,8
Bag'dod	211,7	87,3	75,5
Buvayda	117,4	110,2	76,3
Beshariq	29,5	93,7	23,9
Quva	54,4	90,1	41,8
Uchko'prik	65,4	125,0	54,2
Rishton	49,3	130,3	34,8
So'x	28,4	109,1	24,0
Toshloq	98,9	162,7	58,1
O'zbekiston	90,4	138,8	72,0
Farg'ona	41,7	142,9	20,3
Dang'ara	87,3	119,8	61,9
Furqat	33,6	92,4	37,4
Yozyovon	85,1	165,4	64,1

* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlaringning asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 6,2 %ni tashkil etib, 2021-yilning yanvar-aprel oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan 0,9 % punktga ko'paydi.

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 6,2 %ni tashkil etib, 2021-yilning yanvar-aprel oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan 0,9 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2021-yilning yanvar-aprel oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan 3,0 % punktga kamayib, 64,2 %ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2021-yilning yanvar-aprel oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan 2,1 % punktga ko'payib, 29,6 %ni tashkil etdi.

Ulushi, %da

Yirik qurilish tashkilotlari

Kichik korxona va mikrofirmalar

Norasmiy sektor

6,2

5,3

64,2

67,2

29,6

27,5

2021-yil yanvar-aprel

2022-yil yanvar-aprel




Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 14,6 %ni tashkil etdi va 2021-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 3,9 % punktga ko'paydi.


Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 82,8 % (2,6 % punktga kamayishi) hamda norasmiy sektoring ulushi 2,6 %ni tashkil etdi (1,3 % punktga kamaydi).



Ulushi, %da




Yirik qurilish tashkilotlari



2021-yil yanvar-aprel

Kichik korxona va mikrofirmalar




Norasmiy sektor

2022-yil yanvar-aprel


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2021-yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 1,6 % punktga kamaydi va 7,3 %ni tashkil etdi. Qolgan 92,7 %i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021-yilning yanvar-aprel oyiga nisbatan 1,6 % punktga ko'paydi.



2022-yil yanvar-aprel oylaridagi
Farg'ona viloyatida qurilish ishlari

Qurilish ishlari hajmi yuqori shahar va tumanlar



Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Tel.: 73 241-98-42